

TA'LIM TIZIMIDA MAKTAB YOSHI DAVRIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK HOLATINI IJOBİY BAHOLASH

Boronova Shamsiya Huseynovna

Kosonsoy tumani 13-sonli umumta'lim maktabi

amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim tizimida maktab yoshidagi bolalarning psixologik holatini ijobiy baholashning ahamiyati, psixologik diagnostika usullari hamda o'quvchilarning ruhiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning psixologik-pedagogik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, maktab amaliyotchi psixologi, pedagog va ota-onalarning hamkorlikdagi vazifalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar:Psixologik holat, ijobiy baholash, maktab yoshi, emotsional rivojlanish, psixologik diagnostika, motivatsiya, o'quvchi shaxsi, ruhiy salomatlik, pedagogik yondashuv, psixologik yordam.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning psixologik holatini ham to'g'ri baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bolaning ruhiy holati uning ta'lim jarayonidagi faolligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoshidagi bolalarda psixologik holat turli omillar ta'sirida shakllanadi. Oiladagi muhit, tengdoshlar bilan munosabat, pedagoglarning yondashuvi hamda o'quv yuklamasi bolaning emotsional barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Psixologik holatni ijobiy baholash deganda bolaning qobiliyatlari, hissiyoti, xulq-atvori va ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlovchi hamda rivojlantiruvchi yondashuv tushuniladi. Bu jarayonda bolaning kamchiliklariga emas, balki uning imkoniyatlari va ijobiy jihatlari e'tibor qaratish muhimdir. Carl Rogers insonparvarlik psixologiyasi nazariyasida shaxsni tushunish va qo'llab-quvvatlash uning rivojlanishida muhim omil ekanligini ta'kidlagan. Shu sababli o'quvchiga nisbatan ijobiy munosabat uning ruhiy

barqarorligini mustahkamlaydi. Maktab amaliyotchi psixologi o'quvchilarning psixologik holatini o'rganishda kuzatish, suhbat, test va so'rovnoma metodlaridan foydalanadi. Ushbu metodlar orqali bolaning emotsional holati, xavotir darajasi, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy moslashuvi aniqlanadi.

Psixologik baholash jarayonida bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Har bir o'quvchi o'ziga xos temperament, qiziqish va psixologik ehtiyojlarga ega bo'ladi. Ijobiy baholash usullari o'quvchilarda motivatsiyani oshiradi va o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Rag'batlantirish, maqtov, qo'llab-quvvatlash va muvaffaqiyat hissini uyg'otish bolaning ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Abraham Maslow insonning hurmat va e'tirofga bo'lgan ehtiyoji muhimligini ta'kidlagan. O'quvchining yutuqlarini qadrlash va uning fikriga hurmat bilan yondashish shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, maktabda sog'lom psixologik muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samimiy munosabat, tengdoshlar bilan do'stona muloqot hamda xavfsiz ta'lim muhiti bolaning emotsional holatini barqarorlashtiradi. Ota-onalar bilan hamkorlik ham psixologik holatni ijobiy baholashda muhim o'rin tutadi. Ota-onalarga bolaning yosh xususiyatlari va ruhiy ehtiyojlari haqida tavsiyalar berish, oilada sog'lom muloqot muhitini yaratishga yordam beradi.

Maktabda psixologik treninglar, rivojlantiruvchi mashg'ulotlar va emotsional qo'llab-quvvatlash dasturlarini tashkil etish o'quvchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Maktab yosh davrida ruhiy faollikni shakllantirishning psixologik muammolari sifatida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bolaning tarbiyasi u o'sib-ulg'ayadigan oiladan boshlanadi. Oiladagi sog'lom muhitning qanchalik darajada yuqori bo'lishi maktab yoshidagi bolalarda ruhiy faollikning ijobiy jihatlari namoyon bo'lishida muhim omil hisoblanadi. Bunda ota-onaning, aka-ukalarning va opa-singillarning bola rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri alohida ahamiyatga ega.

Bolada ruhiy faollikni shakllantirish bosqichlari sekin-asta, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har qanday bolaning ruhiy rivojlanishida turli psixologik muammoli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Oilada ota-onaning farzandlariga hamda atrofdagilarga

bo'lgan munosabati kichik yoshdagi bolalar ruhiyatining rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maktab yosh davrida ruhiy faollikni shakllantirishda bolaning aqliy tafakkurida kechadigan ruhiy kechinmalar va psixologik jarayonlar muhim ahamiyatga ega. Bunday davrda bolalarning atrof-olamga va atrof-muhitga bo'lgan munosabati, jumboqli vaziyatlarga bildiradigan reaksiyalari, ularning ruhiyatiga ta'sir qiluvchi omillarni to'g'ri yo'naltirish va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash ota-ona hamda yaqinlari tomonidan to'g'ri tashkil etilishi zarur.

Boladagi ruhiy faollik holatlari ba'zan psixologik jihatdan muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, oilada ota-ona, aka-opa yoki boshqa qarindoshlar o'rtasidagi salbiy munosabatlar bolaning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir qilishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli oilaviy muammolarni yosh bolalar oldida muhokama qilmaslik maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday holatlar bola ruhiyatida turli psixologik o'zgarishlarni yuzaga keltirishi va uning kelajakdagi xarakter shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bolada jismoniy rivojlanish bilan bir qatorda shaxsiy xususiyatlar, intizom, javobgarlik, mas'uliyat va atrof-dagilarga bo'lgan hurmat tuyg'ulari ham shakllanadi. 7–12 yoshli bolalarda tashabbuskorlik, ma'lum faoliyatni amalga oshirishga intilish, kattalar bilan muloqot qilish ehtiyoji va o'ziga xos xayolot dunyosi rivojlana boshlaydi. Shu bilan bir qatorda, murakkab ruhiy-psixologik jarayonlar ham kechadi.

Rivojlanish jarayonida bilim va harakat usullarining o'zgarishi hamda murakkablashuvi sodir bo'ladi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsida yuz beradigan o'zgarishlarni va umumiy xususiyatlarning rivojlanishini o'z ichiga oladi. Rivojlanish dinamikasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchi, bola shaxsining yo'nalganligi, anglash darajasi va insonlar bilan munosabat o'rnatish xususiyatlari.

Ikkinchi, faoliyatning psixologik tuzilishi, motivlar, maqsad va vazifalar.

Uchinchi esa anglash mexanizmlarining rivojlanish darajasi.

Bundan ko'rinib turibdiki, bolaning rivojlanish jarayonini uch qismga bo'lish mumkin:

1. Ta'lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi;
2. Egallangan usullarni amaliyotda qo'llash mexanizmlarining psixologik rivojlanishi;
3. Shaxsning umumiy xususiyatlari — fikrlash, anglash va boshqa jihatlarning rivojlanishi.

Ko'rsatilgan rivojlanish yo'llarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular o'zaro bog'liq holda psixik rivojlanish jarayonini tashkil etadi. Psixik rivojlanish — bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan omillar va qonuniyatlarni o'rganish jarayonidir. Bu esa yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiyaning muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishga intiluvchi biogenetik oqim XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan bo'lib, bola psixik xususiyatlarining tabiati haqidagi qarashlarni ilgari surgan. Ushbu ta'limotga ko'ra, inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari biologik omillar bilan belgilanadi. Psixik rivojlanish esa irsiy ravishda avvaldan belgilangan xususiyatlarning yetilish jarayoni sifatida talqin etiladi.

Avstraliyalik psixolog K. Byuler bolalarning nafaqat aqliy taraqqiyoti, balki axloqiy rivojlanishi ham nasliy jihatdan belgilanadi, deb ta'kidlagan. Amerikalik pedagog va psixolog J. Dyui esa inson ehtiyojlari va psixik xususiyatlari tug'ma bo'lib, tarbiya faqat ularning namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblagan.

Z. Freyd shaxs faolligini asosan instinktiv mayllar bilan bog'laydi. Uning fikricha, jamiyatdagi ijtimoiy hayot insondagi tabiiy instinktlarni cheklaydi va natijada ular ongsizlik darajasiga o'tadi. Ushbu ongsiz mayllar turli "komplekslar" shaklida namoyon bo'ladi.

Inson shaxsining shakllanishini tushuntiruvchi yana bir yo'nalish — sotsiogenetik konsepsiya bo'lib, u qobiliyatlar rivojlanishini ijtimoiy muhit ta'siri bilan izohlaydi. XVIII asr fransuz olimi K. Gelvesiy barcha odamlar tug'ilishdan bir xil tabiiy imkoniyatlarga ega bo'ladilar, insonlar o'rtasidagi farq esa muhit va tarbiya ta'siri natijasida yuzaga keladi, deb hisoblagan.

Hozirgi zamon psixologiyasi ham ijtimoiy muhitning inson psixikasi rivojlanishidagi muhim rolini e'tirof etadi. Har bir inson o'ziga xos ijtimoiy muhitda, aniq ijtimoiy munosabatlar tizimida yashab ulg'ayadi va shakllanadi. Shaxsning mohiyati ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, uning barcha psixik xususiyatlari va ruhiy faolligi ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir.

Shaxsning taraqqiyoti insonning atrof-dagilar bilan munosabatlari jarayonida ijtimoiy tajribani egallashi orqali amalga oshadi. Natijada insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, xarakteri, irodaviy sifatleri, qiziqishlari, e'tiqodi va dunyoqarashi shakllanadi. Muhit inson psixik xususiyatlarini faqat namoyon qiluvchi omil emas, balki ularni tarkib toptiruvchi muhim vosita ham hisoblanadi. Shu bois inson muhit ta'siridagi passiv obyekt emas, balki faol mavjudotdir. Tashqi muhit inson psixikasiga uning faoliyati va ijtimoiy munosabatlari orqali ta'sir ko'rsatadi.

Psixikaning rivojlanishi tashqi sharoitlarga bog'liq bo'lsa-da, bu rivojlanishni bevosita tashqi omillar bilan izohlab bo'lmaydi. Har bir ta'sir insonning hayotiy tajribasi, individual psixologik xususiyatlari va shaxsiy dunyoqarashi orqali namoyon bo'ladi.

Bola shaxsi faol mavjudot sifatida ongli ravishda o'zini-o'zi tarbiyalash bilan shug'ullanishi mumkin. Biroq bu jarayon atrof-muhitdan ajralgan holda emas, balki muhit bilan o'zaro munosabat asosida amalga oshadi. Insonning ijtimoiy faoliyati uning psixik rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi. Maktab yosh davrida ruhiy faollikni shakllantirishning psixologik muammolari bugungi psixologiya fanida dolzarb mavzulardan biri bo'lib, bu masalalar o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar va psixologlar hamkorligida hal qilinishi zarur. O'quvchilarga psixologik qo'llab-quvvatlash ko'rsatish, ularni tushunish va o'z imkoniyatlarini namoyon etishlariga yordam berish ushbu muammolarni samarali hal etishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktab yoshidagi bolalarning psixologik holatini ijobiy baholash ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Ijobiy yondashuv, individual baholash, psixologik qo'llab-quvvatlash va sog'lom ta'lim muhiti orqali o'quvchilarning ruhiy barqarorligi hamda shaxsiy rivojlanishini samarali ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2007. 1–2 kitob.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent.
3. Karimova V., Akramova F. Psixologiya. Ma’ruzalar matni. Toshkent.
4. Alijon M., Iqlimaxon A., Muslimaxon I. “Globallashuv jarayonlari va uning zamonaviy sharoitlarda tarbiyaga ta’siri”. Ta’lim fidoyilari, 2022. 13(6), 271–273-betlar.
5. Muslimaxon Ibrohimova, Nargizaxon Usmonova. “Pedagogik jarayondagi nevrozlar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar misolida”. Qo‘qon Universiteti Xabarnomasi, 2023. 1(1), 578–580-betlar.
6. Raximjonovna U.N. “O‘smir yoshidagi o‘quvchilarda ‘Tarbiya’ fanini o‘qitish orqali mustaqil fikrlashga o‘rgatish”. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 2023. 11(6), 232–237-betlar.
7. Asilova S.X. “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari”.
8. Xursanov O. “Talabalarni hamkorlik texnologiyasi asosida o‘quv-ma’naviy moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirish texnologiyasi”. Educational Research in Universal Sciences, 2023. 2(12), 264–269-betlar.
9. Sadriddinova Zulfiya. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini tashkil etish — dolzarb pedagogik muammo sifatida”. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 2024. 3(1), 188–193-betlar.
10. Toxirjon U. “Pedagogika va psixologiya o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rganish”. Integration of Economy and Education in the 21st Century, 2024. 2(2), 22–27-betlar.